

**Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Gnezdova J.V. et al. Attraction of Foreign Investments as A Condition for Regional Industrial Development in Russia. // Amazonia Investiga. 2019. T. 8. №. 20. C. 263-270.
2. Hobrei M.V. Attracting Direct Investments in the Regions of Ukraine and Their Impact on the Economic Development of the Transcarpathian Region. // Scientific Bulletin of Mukachevo State University. Series "Economics". 2020. T. 1. №. 13. C. 147-151.
3. Gupta P.A. Roadmap for Attracting Investment and Industry for Economic Development of States. // Administration in India. – Routledge, 2023. C. 125-133.
4. Hu G.G. Is knowledge spillover from human capital investment a catalyst for technological innovation? The curious case of fourth industrial revolution in BRICS economies. // Technological forecasting and social change. 2021. T. 162. C. 120-127.
5. Barrios S., Görg H., Strobl E. Foreign direct investment, competition and industrial development in the host country. // European economic review. 2005. T. 49. №. 7. C. 1761-1784.
6. Sueyoshi T., Goto M. Investment strategy for sustainable society by development of regional economies and prevention of industrial pollutions in Japanese manufacturing sectors. // Energy Economics. 2014. T. 42. C. 299-312.
7. Razikov Akmal Perfection of the mechanism of attracting foreign investments in light industry of the Republic of Uzbekistan. // European journal of economics and management sciences. 2016. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/perfection-of-the-mechanism-of-attracting-foreign-investments-in-light-industry-of-the-republic-of-uzbekistan>.
8. Oltinovich I.R. Improving the mechanisms of attracting investment in the economy. // Asia pacific journal of marketing & management review. ISSN: 2319-2836. Impact Factor: 7.603. 2022. T. 11. №. 04. C. 28-33.
9. <https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
10. <https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
11. <https://siat.stat.uz/reports-filed/2257/meta-data>



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARI UMUMIY HAJMINING STATISTIK TAHLILI**

**Mamatkulov Baxtiyor Xalmuradovich**

Toshkent moliya instituti

Statistika va ekonometrika kafedrası professori,

iqtisodiyot fanlari doktori DSc

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss6/a31](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a31)

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining statistik tahlili, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati samaradorligini statistik baholash, ularning mahsulot (xizmat)lariga ta'sir etuvchi omillarni statistik o'rganish kabi masalalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, agrosanoat majmuyi, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, mahsulot (xizmat)lar, statistik tahlil.

**СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБЩЕГО ОБЪЕМА ПРОДУКЦИИ (УСЛУГ) СЕЛЬСКОГО, ЛЕСНОГО И РЫБНОГО ХОЗЯЙСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**Маматкулов Бахтиёр Халмурадович**

Ташкентский финансовый институт

профессор кафедры «Статистика и эконометрика»,

доктор экономических наук

**Аннотация.** В статье статистический анализ общего объема сельского, лесного и рыбного хозяйства, эффективность сельского хозяйства, лесного хозяйства и рыболовства, их продуктов (услуг) рассмотрены как статистическое исследование факторов.

**Ключевые слова:** сельское хозяйство, лесное и рыбное хозяйство, АПК, растениеводство, животноводство, охота, продукция (услуги), статистический анализ.

## STATISTICAL ANALYSIS OF THE TOTAL VOLUME OF AGRICULTURE, FORESTRY AND FISHERIES PRODUCTS (SERVICES) OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Mamatkulov Bakhtiyor Khalmuradovich**

*Tashkent Institute of Finance*

*Professor of the Department of "Statistics and Econometrics", doctor of economic sciences*

**Abstract.** In the article, a statistical analysis of the total volume of agriculture, forestry and fisheries, the efficiency of agriculture, forestry and fisheries, their products (services) are considered as a statistical study of factors.

**Keywords:** agriculture, forestry and fisheries, agro-industrial complex, agriculture, livestock, hunting, products (services), statistical analysis.

**Kirish.** Jahonda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash borasida davlatning tartibga solish mexanizmlaridan maqsadli foydalanish, samaradorlikni ta'minlashda ishlab chiqarishni zamonaviy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda tashkil qilish, prognozlashtirish usullarining aniqlik darajasini oshirish kabilar bo'yicha tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)lar to'g'risida ishonchli, sifatli ma'lumotlarni shakllantirish, ularning shaffofligi va oshkorligini oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirish, tarmoq bo'yicha statistik ma'lumotlarni xalqaro darajada unifikatsiyalash darajasini oshirish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda.

"2023-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) soni 53 808 tani, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarida ko'rsatilgan xizmatlarda 49 859 tani, o'rmon xo'jaligida 268 tani hamda baliqchilik xo'jaligida 3 681 tani tashkil etdi" [7, 4 bet].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmonining 30-maqsadida "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish" vazifasi qat'iy belgilab qo'yildi [1, 6-bet].

Shu sababli "Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalar, tasniflar va uslubiyatga amal qiladi" [2, 4-bet].

"Mamlakatimizda statistika ma'lumotlarining sifati va ishonchliligini oshirish borasida

tizimli ishlar amalga oshirilib, bo'lib o'tayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni, jumladan, xalqaro tashkilotlarning maxsus nashrlari va ma'lumotlar bazalarida xolis va ishonchli aks ettirishni ta'minlash choralari ko'rilmogda" [3, 1-bet].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish masalalariga oid ko'p ilmiy ishlar qilinganligiga qaramay, uning mohiyati, tarkibi, vazifalari, iqtisodiyotdagi roli xususida yagona, yaxlit umumqabul qilingan yondashuv shakllanmagan. Shuningdek, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i faoliyatini statistik baholashning metodologik asoslari maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Mualliflar A.Abdug'aniyev, A.A.Abdug'aniyevlarning fikricha, "O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin boshqarilayotgan, ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodi qonunlariga asoslanishi belgilab olindi. Buning uchun iqtisodiyotning barcha sohalarida erkin bozor munosabatlarining shakllanishini ta'minlovchi islohotlarni amalga oshirish obyektiv zarurat hisoblanadi. Shuni e'tiborga olgan holda qishloq xo'jaligida turlicha islohotlar amalga oshirilmoqda" [5, 14-bet].

H.Nabiyev, M.Ahmedovanning qayd etishi-cha, "Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibiga bu yilgi hosildan olingan dehqonchilik mahsulotlari va chorvachilik mollari va qushlarini boqishdan olingan mahsulotlar qiymati ham kiritiladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqargan mahsuloti hajmi ularning barcha elementlari qiymatini qo'shish usuli bilan hisoblanadi" [6, 193-bet].

N.M.Soatov, G.N.Tillaxo'jayevanning fikricha, "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish indeksleri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Sanoat ishlab chiqarish indekslaridan farqli o'laroq, ular bir yilda bir marotaba yillik yakun asosida hisob-

lanadi. Shu bilan birga bu indekslar iqtisodiy jaryon kechishida kuzatiladigan mavsumlik ta'siri osida yil sayin sezilarli darajada tebranish jihati-ga ega. Shu sababli agrobiznes rivojlanish qonu-niyatlarini tahlil qilishda uzoqroq davrlarga tegishli 3-5 yillik o'rtacha indekslar hisoblanib, keng qo'llanadi" [6, 418-bet].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jara-yonida ilmiy abstraksiyalash, statistik kuzatish, mutlaq, nisbiy miqdorlar, statistik baholash, gra-fik, dinamika qatorlarini tahlil qilish ko'rsatkich-lari, dinamika qatorlarini trend tenglamasi asosi-da analitik tekislash, vaqt omili bo'yicha prognoz-lash kabi usullardan foydalanilgan.

**Tahlili va natijalar.** Bu holat respublika-mizda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot

(xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish samaradorligi-ni oshirishni taqozo etmoqda. Chunki respublika-miz qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida mahsulot (xizmat)lar yalpi ishlab chiqarishi soha-da o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mah-sulot va xizmatlarning umumiy qiymatini bildira-di. Shu nuqtayi nazardan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqa-rishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xiz-mat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligi-da, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllanti-riladi.

1-jadval

**Qishloq xo'jaligining asosiy ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
<b>Qishloq xo'jaligi ekinlari ekin maydoni, ming gektar</b>	3396,0	3309,4	3396,1	3340,6	3353,3
Qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd. so'm	187425,6	216283,1	250250,6	303415,5	345191,7
shu jumladan:					
dehqonchilik	98406,4	111904,8	123858,8	152130,4	177962,7
chorvachilik	89019,2	104378,3	126391,8	151285,1	167229,0
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	100,2	103,3	102,7	103,9	103,6
shu jumladan:					
dehqonchilik	95,8	104,8	103,2	104,3	103,8
chorvachilik	105,7	101,6	102,1	103,5	103,3

**Manba:** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2018-2022-yillik ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Qishloq xo'jaligining asosiy ko'rsatkichlari-ni tahlil qilganimizda, jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi ekinlari ekin maydoni 2022-yilda 3353,3 ming gektarni, 2018-yilda 3396,0 ming gektarni tashkil etib, 2022-yil-da 2018-yilga nisbatan 42,7 ming gektarga, ya'ni 1,3 foizga pasaygan (1-jadval).

Agrar sohada amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va kelgusida rivojlantirish istiqbollari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tar-mog'ini har tomonlama rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga bog'liq bo'lib bormoqda. Buni dav-riy statistik ma'lumotlar, faoliyat ko'rsatayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i faoliya-tini rag'batlantirish va uyg'unlashtirish, ularga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma muassasalarini yanada takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar dalil sifatida xizmat qilishi mumkin. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida hal qiluvchi kuchga aylanib borayot-gan dehqonchilik va chorvachilik sohasining ri-

vojlaniishi o'z natijalarini bermoqda. Shuni ta'kid-lash joizki, respublikamizda faoliyat ko'rsatayot-gan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i si-fat jihatdan ham ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy yutuq-larga erishdi. Bugungi kunda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i iqtisodiyotning yetakchi bo'g'iniga – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mah-sulot (xizmat)larini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylanmoqda.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oshishi faqat ekin maydonlarini ken-gaytirish yoki chorva mollari bosh sonini ko'pay-tirish evaziga emas, balki asosan, intensiv rivojla-nish, ya'ni ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligini oshirish evaziga ta'minlanmoq-da. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashda fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarini amalga oshirish bugungi kunda eng dolzarb masalalar-dan hisoblanadi.

Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻi faoliyatining jadal rivojlanishida unga xizmat koʻrsatuvchi infratuzilma muassasalarining tashkil etilishi va xizmat sifati darajasining oʻrni muhimdir. Shu sababli infratuzilma muassasalarining koʻrsatadigan xizmatlari zamon talablari asosida amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq boʻlar edi. Buning natijasida qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻi subyektlarining mamlakatimizda yangi ish oʻrinlarini tashkil qilish, qishloq aholisining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli boʻladi.

“Qishloq xoʻjaligi asosiy maqsadga erishishi uchun turli xildagi mahsulotlarni yetishtiradi, ish va xizmatlarni bajaradi, ular yordamida talabni qondirish maqsadida taqsimlanadi, sotiladi. Korxonalar, birlashmalar, tarmoqlar (tuman, viloyat, respublika) miqyosida kechayotgan bu jarayonlar erkin bozor munosabatlari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir” [5, 17-bet].

Mamlakatimizda qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻini tashkiliy iqtisodiy jihatdan

jadal rivojlantirish iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, yangi ish oʻrinlarini tashkil qilish, qishloq aholisining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar zaminida qishloqni har tomonlama rivojlantirish, u yerda istiqomat qilayotgan odamlarning turmush farovonligini yuksaltirish masalasiga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bunda, avvalo, qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻida fermer xoʻjaliklarini tashkil etish va rivojlantirish birinchi navbatdagi muhim masala sifatida kun tartibiga qoʻyilmoqda. Yuqorida keltirilgan fikrlardan barchamizga ayonki, agrar soha iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishning eng muhim manbasi va omili hisoblanadi.

Zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish va qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻini yuqori unum bilan ishlaydigan qishloq xoʻjaligi texnikasi bilan taʼminlash hisobidan qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishida intensiv usullarga oʻtish ushbu sohani barqaror va samarali rivojlantirishda eng muhim yoʻnalish hisoblanadi.

**2-jadval**

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida Oʻzbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti hajmining oʻzgarishi, (mlrd. soʻm)**

Koʻrsatkichlar	Yillar							
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
<b>I. YaIM, jami</b>	<b>221 350,9</b>	<b>255 421,9</b>	<b>317 476,4</b>	<b>426 641,0</b>	<b>532 712,5</b>	<b>605 514,9</b>	<b>738 425,2</b>	<b>888 341,7</b>
Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati	201 204,0	232 990,4	282 684,4	381 065,2	487 449,8	561 153,4	686 432,4	828 054,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	20 146,9	22 431,5	34 792,0	45 575,8	45 262,7	44 361,5	51 992,8	60 287,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qoʻshilgan qiymati</b>	<b>201 204,0</b>	<b>232 990,4</b>	<b>282 684,4</b>	<b>381 065,2</b>	<b>487 449,8</b>	<b>561 153,4</b>	<b>686 432,4</b>	<b>828 054,2</b>
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	64 680,3	74 779,0	90 983,9	113 327,4	129 885,0	150 493,7	181 787,7	208 452,9
Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)	49 849,2	58 545,9	74 799,0	116 225,2	164 635,7	187 610,0	232 535,7	276 227,0
sanoat	38 466,6	45 397,9	59 570,4	94 266,7	134 185,8	150 275,1	186 978,2	220 704,3
qurilish	11 382,6	13 148,0	15 228,6	21 958,5	30 449,9	37 334,8	45 557,4	55 522,7
Xizmatlar	86 674,5	99 665,5	116 901,5	151 512,6	192 929,1	223 049,8	272 109,1	343 374,3
savdo, yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar	16 145,3	18 755,4	21 540,6	26 510,1	32 179,7	36 662,8	46 750,0	57 801,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	19 158,2	21 113,0	25 305,6	30 095,3	36 028,6	38 313,1	47 934,3	57 776,5
boshqa xizmat tarmoqlari	51 371,0	59 797,1	70 055,4	94 907,3	124 720,8	148 073,9	177 424,8	227 796,1

*Manba:* Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2015-2022-yillik maʼlumotlari asosida tuzilgan.

“Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʻshilgan qiymat hajmi YaIM umumiy hajmining 93,2 %ini tashkil etdi va 6,2 %ga oʻsdi (YaIM mutlaq oʻsishiga taʼsiri 5,8 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 6,8 %ni tashkil etdi va


2021-yil bilan taqqoslaganda, 0,8 %ga kamaydi (YaIM mutlaq oʻsishiga taʼsiri -0,1 f.p.)

2022-yil yakunlariga koʻra, YaIM tarkibida katta boʻlmagan oʻzgarishlar kuzatildi. YaIM (YaQQ) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 39,6 %dan 41,5 %ga, qurilish tarmogʻining ulushi

6,6 %dan 6,7 %ga oshdi. Shu bilan birga, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining ulushi 26,5 %dan 25,1% ga kamaydi. Sanoatning (qurilishni qoʻshgan holda) ulushi esa 33,4 %ni tashkil etdi” [6, 15-bet] (2-jadval).

Hisobot davrida hududlar kesimida aholi jon boshiga qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼatini tahlil qilar

ekanmiz, eng yuqori oʻsish surʼatini qayd etgan hududlarga Buxoro viloyati (102,0 %), Namangan viloyati (101,9 %), Qoraqalpogʻiston Respublikasi (101,9 %), Navoiy viloyati (101,8 %) va Xorazm viloyatlarini (101,7 %) keltirib oʻtishimiz mumkin. Aksincha, oʻsish surʼati past hududlarga Surxondaryo (100,2 %), Jizzax (101,1 %), Sirdaryo (101,3 %) va Andijon (101,4 %) viloyatlarini keltirib oʻtishimiz mumkin.



**1-diagramma. Oʻzbekiston Respublikasi aholi jon boshiga qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʼatlari yillar boʻyicha dinamikasi, %**

2022-yilda Oʻzbekiston Respublikasining aholi jon boshiga qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlarda 10 225,6 ming soʻmni, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 101,5 %ni tashkil etdi (1-diagramma). Aholi jon boshiga qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlardagi tarmoq umumiy hajmini mamlakatning hisobot davridagi oʻrtacha aholisi soniga boʻlish yoʻli bilan aniqlanadi. 2022-yilda Oʻzbekiston Respublikasi doimiy aholisining oʻrtacha soni 35 648,1 ming kishini tashkil etgan.

“Qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarish tarkibiga bu yilgi hosildan olingan dehqonchilik mahsulotlari hamda chorvachilik mollari va qushlarini boqishdan olingan mahsulotlar qiymati ham kiritiladi. Qishloq xoʻjaligi ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqargan mahsuloti hajmi ularning barcha elementlari qiymatini qoʻshish usuli bilan hisoblanadi” [4, 193-bet].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekiston Respublikasi qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining statistik tahlili jarayonlarini takomillashtirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

– Oʻzbekiston milliy iqtisodiyotida qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻining tutgan oʻrni va rolini statistik oʻrganish;

– oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashning asosiy omili sifatida qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻining faoliyatini statistik tadqiq etish;

– qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻini rivojlantirishida ilgʻor mamlakatlar tajribalari va ulardan foydalanishning asosiy yoʻnalishlarini statistik tadqiq etish;

– qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻining yalpi ishlab chiqarish hajmiga taʼsir etuvchi omillarini indeks tahlil qilish;

– Oʻzbekiston Respublikasi qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻining faoliyati samaradorligi dinamikasini miqdoriy baholash;

– qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻining faoliyati samaradorligini korrelyatsion-regression tahlil metodi asosida statistik baholash;

– Oʻzbekiston Respublikasi qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻining faoliyati samaradorligini anketa-soʻrovnomalari asosida statistik baholash;

– qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻining iqtisodiy qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligini statistik baholash usullarini takomillashtirish istiqbollarini aniqlash;

– Oʻzbekiston Respublikasi qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻining iqtisodiy qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligini statistik baholash usullarini takomillashtirish boʻyicha

berilgan xulosalar asosida ilmiy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;

– qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi koʻrsatkichlarining sifati va shaffofligini yanada oshirish;

– qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻining tarkibiy holatini statistik baholash, sohani xalqaro tajribalarda foydalaniladigan statistik

maʼlumotlar bilan taqqoslash imkoniyatini yaratish;

– qishloq xoʻjaligi sohasida roʻyxatdan oʻtkazish davrlari oraligʻida dastlabki sinov tariqasida roʻyxatdan oʻtkazishni tashkil etish, tanlanma kuzatuvlarni amalga oshirish uchun statistik maʼlumotlar bazasini yaratish.

### **Manba va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-sonli farmoni. 2022-yil 28-yanvar. // <https://lex.uz/docs/5841063>.

2. Oʻzbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika toʻgʻrisida”gi OʻRQ-707-sonli qonuni. 2021-yil. 11-avgust. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-sonli “Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

4. Nabiyev H., Ahmedova M. Iqtisodiy statistika. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish” nashriyot-matbaa uyi, 2021. – 380 b. № 47.

5. Abdugʻaniyev A., Abdugʻaniyev A.A. Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyoti: oliy oʻquv yurtlarining iqtisodiy taʼlim yonalishi talabalari uchun darslik. // Maʼsul muharrir: S.S.Gʻulomov. – T.: “Adib” nashriyoti, 2011. – 400 b.

6. Soatov N.M., Tillaxoʻjayeva G.N. Statistika. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 535 bet.

7. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti.